

**Jizzax viloyati G'allaorol tumanida 2021-2023-yillarda Tashabbusli  
budjetlashtirish natijalari amaliyoti**

*Normurodov Islombek*

*Tursunov Shaxriyor*

*Mamatkulov Shahzodbek*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*“Moliya” fakulteti MMT-88--guruh talabalari*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax viloyati G'allaorol tumanida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan tashabbusli byudjetlashtirish natijalari, ajratilgan mablag'lar miqdori, bildirilgan takliflar hamda ovoz berish natijasida g'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, taklif bildirish, mablag' ajratish, moderatsiya, ovoz berish, pudratchini aniqlash, shartnoma tuzish.*

Tashabbusli budjetlashtirish xozirgi kunda fuqarolarga hukumat faoliyati bilan tanishish, budjet mablag'larining sarflanishini muhokama qilish va o'z takliflarini bildirish orqali uni taqsimlanishiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradigan tadbir sifatida dunyoning deyarli barcha mamlakatlar amaliyotida tadbir etilgan. Tashabbusli byudjetlashtirish oshkorlik va hisobdorlikni oshirib, hukumat samarasizligini kamaytirishga va korrupsiyani cheklashga yordam beradi. Shuningdek, tashabbusli byudjetlashtirish olis va chekka hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning ovozi eshitilishida va ularning manfaatlari uchun muhim bo'lgan davlat qarorlarini qabul qilishga ta'sir qilish imkoniyatini berish orqali inklyuziv boshqaruvni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda «Ochiq byudjet» portali ishga tushirilgan. Unda davlat byudjeti va qarzi bo'yicha ma'lumotlar e'lon qilib boriladi. Bu platformada jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo'llarni qurish, maktablarni ta'mirlash va

jihozlash hamda boshqa masalalar bo'yicha loyihalarni taklif etib, mahalliy byudjetning taqsimlanishida ishtirok etishlari mumkin.

Xususan biz ushbu maqola davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli budjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Jizzax viloyati G'allaorol tumani misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari, tumanda jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan va g'olib deb topilgan loyihalarning umumiy soni, mazmuni, ularni loyihalashtirish uchun ajratilgan mablag'larning umumiy qiymati to'g'risida bir qator ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik va xulosalarga ega bo'ldik.

Quyidagi 1-jadvalda Jizzax viloyati G'allaorol tumanida budjet mablag'lari hisobidan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar va ularning taqsimlanishini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Jizzax viloyati G'allaorol tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0	847 321	1 771 877
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1 500 000,0	11 143 344	16 195 021
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 372 000,0	15 741 000	23 760 000
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 305 907,5	12 219 338	20 938 328
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	0,0	3 123 900	596 646
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	66 092,5	1 771 877	2 248 447

Yuqorida keltirilgan jadval Jizzax viloyati G'allaorol tumani uchun tashabbusli byudjetlashtirish maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakillangan

loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorining so'nggi uch yil davomida o'zgarishi dinamikasini aks ettiradi. Jadvalda ko'rishimiz mumkinki, yillar davomida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larning umumiy miqdori yillar davomida sezilarli darajada ortib borgan. Misol uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 2021-yil yakunlari bo'yicha 1 372 000,0 ming so'mni tashkil etgan, 2022-yil davomida bu ko'rsatgich deyarli 11,5 barobarga ortib 15 741 000 ming so'mni tashkil qilgan bo'sa, 2023-yilning mos davriga kelib jamoatchilik fikri asosida shakillangan mablag'larni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar o'tgan moliya yiliga nisbatan qariyb 51% ga ortib 16 195 021 ming so'mga yetgan.

Tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar tuman aholisi tomonidan ilgari surilgan va eng ko'p ovoz to'plash natijasida g'olib deb topilgan turli darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida sarflangan. Quyidagi jadvalda o'tgan uch yil mobaynida Jizzax viloyati G'allaorol tumanida tashabbusli budjetlashtirish moliyalashtirilgan tadbirlar, ularning umumiy soni va sarflangan mablag'larning umumiy qiymatini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Jizzax viloyati G'allaorol tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag'	
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil
(ming so'mda)						
2023-yil						
Jami	4 16 20	1 305 907,5	12 219 338	20 938 328		
1.	Hududiy ichki yo'llar	2	7	12	641 845,3	6 994 500
		13 337 044				

2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	6	7	
	3 465 169	6 750 399		
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1	
1	211 383,0	641 090		
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash			
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash			
1	739 578			
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	1	379
000	850 885			
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari			
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish)			
9.	Boshqa tadbirlar	1		452 679,2

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2022-yilda moliyalashtirilgan loyihalarning umumiy soni 2021-yilga nisbatan 4 marta ortiq bo'lsa, ularga sarflangan mablag'larning umumiy hajmi 9 barobardan ortiq. Shuningdek, o'tgan yillar davomida amalgam oshirilgan tadbirlar soni va qiymati G'allaorol tumanida hududiy ichki yo'llarni qurish, ta'mirlash va qayta ta'mirlash hamda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bilan bog'liq bo'lgan masalalar hudud aholisi uchun eng dolzarb muammolar hisoblanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan 2022-yil mobaynida hududiy ichki yo'llarni qurish va ta'mirlash bo'yicha 7 ta umumiy qiymati 641 845,3 ming so'mlik loyiha moliyalashtirilgan bo'lsa, 2023-yil mobaynida bu borada amalgam oshirilgan loyihalarning umumiy soni va qiymati deyarli ikki barobarga oshib 13 337 044 ming so'mlik 12 ta loyihani tashkil qilgan. Umumiy soni va qiymati bo'yicha tumanda ikkinchi o'rinda turgan masala hududda mavjud umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bilan bo'lgan loyihalar hisoblanib bu borada G'allaorol tumanida o'tgan 2023-yil mobaynida umumiy qiymati 6 750 399 ming so'mlik 7 ta loyiha jamoatchilik fikri

asosida shakllantirilgan, ovoz berish natijalariga ko'ra go'lib deb topilgan va moliyalashtirilgan.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalashtirish uchun mablag'lar tuman budjetiga qonunchilikda belgilangan tartib asosidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi. Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari mahalliy budjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizi, mahalliy budjetning yil boshiga erkin qoldiq mablag'lari va mahalliy budjetning orttirib bajarilgan daromadlarining 30 foizi hajmidagi mablag'lari asosida shakllanadi. Quyidagi keltirilgan jadvalda esa shbu turdagi mablag'larning shakllanishini yillar kesimida choraklar va yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Jizzax viloyati G'allaorol tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari

(ming so'mda)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari

2021-yil

2022-yil

2023-yil

Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar                 8 731 344   11 807 950

Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari  
582 000    1 127 700

Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar                 2 412 000   4 387 071

Shu jumladan    Erkin qoldiq mablag'lari                 582 000    1 127 700

Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi                 1 830 000   1 380 000

Iqtisod qilingan mablag'lar                                     1 879 371

Qo'shimcha ajratilgan    PQ-5250ga asosan

PQ-409ga asosan

PQ-117ga asosan

Jami ajratiladigan mablag'lar                      14 137 344 20 582 092

Yuqorida berilgan jadval so`ngi yillarda Jizzax viloyati G`allaorol tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg`armasiga ajratilgan mablag`larning shakllanishi manbalarini yillar kesimida ko`rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'i jami 2022-yilda 8 731 344 ming so`m ni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu ko`rsatkich 11 807 950 ming so`mga yetib o`tgan yilgiga nisbatan 3 076 606 ming so`mga oshgan. Erkin qoldiq mablag'lari esea 2022-yilda 582 000 ming so`mni bo`lib bu mablag'lar 2023-yilga kelib qariyb ikki barobarga oshib 1 127 700 ming so`mni tashkil etgan. Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari jami 2022-yilda 2 412 000 ming so`mni tashkil qilgan bo`lsa 2023-yil esa 4 387 071 ming so`mga yetgan bu o`tgan yilgiga nisbatan 1 975 071 ming so`mga ko`p. Daromadlarning hisobot yili yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi 2022-yilda 1 890 000 so`mni bo`lgan bo`lsa, 2023-yilda 1 380 000 so`mni yashkil etgani holda o`tgan yilgiga nibatan 510 000 ming so`mga kamaygan. Iqtisod qilingan mablag`lar hisobidan Fuqarolar tashabbusli jamg`armasiga ajratilgan mablag`lar 2022-yilda mavjud bo`lmagan lekin 2023-yilb yakuni bo`yicha jami 1 879 371 ming so`mni tashkil etgan.

Yuqoridagi raqamlardan ko`rinib turubdiki Jizzax viloyati G`allaorol tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg`armasi tomonidan tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar uchun yetarlicha mablag`lar ajratilgan va g`olib loyihalar amalga oshirilgan hatto oxirgi yillarda iqtisod qilingan mablag'lar mavjud.

Jizzax viloyati G`allaorol tumanida Tashabbusli budjetlashtirish uchun 2022-yilda jami ajratiladigan mablag' 14 137 344 ming so`m bo`lgan bo`lsa bu ko`rsatgich 2023-yilda 20 582 092 ming so`mni tashkil etgan.

Quyida keltirilgan jadvalda tuman aholisi tomonidan hudud miqyosida eng dolzarb deb topilgan loyihalar, ularning qisqacha mazmuni va loyihaning g`olib

bo'lishi uchun qancha ovoz to'plaganligi hamda ushbu g'olib loyihalarni moliyalashtirish uchun qancha mablag' sarflanganligini yillar kesimida hamda loyihalar kesimida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Jadvalda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi tashabbusli byudjet loyihasiga berilgan ovozlarning offlayn, onlayn va sms orqali nechta ovoz to'planganini ko'rishimiz mumkin. Jizzax viloyatining G'allaorol tumaniga eng ko'p ovoz berishlar soni sms orqali berilgan bo'lib, ovoz berish natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan loyihalarga berilgan ovozlarning umumiy soni 58 504 tani tashkil qilgan bo'lsa sms orqali berilgan ovozlar soni 57 669 tani tashkil qilgan onlayn ovozlar soni esa 835 tani tashkil qilgan. Bu loyihalarga jami ajratilgan mablag'larning umumiy miqdori 15,741 mlrd so'mni tashkil qilgan.

4-jadval

Jizzax viloyati G'allaorol tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
-----	--------------------------------------	-----------------------------	---

2021-yil

1.

2022-yil

1.G'allaorol tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 56-sonli umum ta'lim maktabga kutubxona qurish. 3 269 950 000

2.Guliston QFY, Gadoyi qishlog'ining 1.5 km kirish yo'lini asfalt qilish  
2 384 990 000

3.Madaniyat QFY Qangliobod shaharchasi Baxmal ko'chasidan Zargar qishlog'iga olib boruvchi 1.8 km yo'lni asfalt qilish. 1 924 900 000

4.G'allaorol tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 42-sonli umum ta'lim maktab binosini rekonstruksiya qilish hamda deraza eshik romlarini almashtirish..  
1 906 900 000

5. Madaniyat QFY Tutli qishlog'ining 2 km yo'lni asfalt qilish va ariqlarning kerakli joylariga quvur o'rnatish 1 791 1 010 000

6. Mirzabuloq QFY Nayman qishlog'idan Xonaqox qishlog'igacha bo'lgan 2 km yo'lga asphalt qilish. 1 714 750 000

7. G'allaorol tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga yumshoq va qattiq jihozlar va oshxona uchun idish-tovoq va oshxona

jixozlari bilan ta'minlash. 1 444 650 000

8. G'allaorol tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 56-sonli umum ta'lim maktabga kutubxona qurish. 3 269 950 000

9. Boshqa tadbirlar 40 803 8 641 000

2022 – yil bo'yicha jami: 58 504 15 741 000

2023-yil

1. G'allaorol tumani Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 44-umumiy o'rta ta'lim maktabiga qo'shimcha bino qurush. 9 503 1 200 000

2. Baxmalsoy qishlog'i ichki yo'llari 3 km masofadaga asfalt yotqizish hamda maktab oldidan o'tuvchi yog'ingarchilik oqibatida yuzaga keladigan sel toshqillarini tartiga soluvchi zovur qurish 7 719 1 200 000

3. Qo'ytosh shaharchasidagi 4-maktabni ta'mirlash. Maktabning 44 ta xonasidagi fizik yaroqsiz va eskirgan pollarini yangilash va ta'mirlash. 6 427 1 000 000

4. G'allaorol tuman Ko'kgumbaz MFY Zargar qishlog'ida joylashgan 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari va yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari uchun sport zali qurish 6 270 1 200 000

5. Do'stlik MFY ga qarashli Tinchlik, Tadbirkorlar, Ziyolilar va Durodgor ko'chalarini ta'mirlash va asfalt yotqizish 5 764 1 200 000

6. Qashqabuloq qishlog'ining ichki yo'llarini ta'mirlash va asfalt yotqizish 5 634 1 200 000



7. Bulokboshi KFY Olmazor va Chuvillok kishloklari ichki yullarini asfaltlashtirish 5 513 1 200 000

8. G'allaorol tuman G'o'bdin QFY Xo'jakabud qishlog'ida 3000 metr ichki yo'llarga asfalt qoplamasini yotqizish. Maktab o'quvchilari va aholi uchun qulaylik yaratish. 12 050 1 320 000

9. G'allaorol tuman Ko'kgumbaz MFY Ko'kgumbaz qishlog'ining 5 km ichki yo'llarini asfalt beton yotqizish 10 981 1 320 000

10. Boshqa tadbirlar 54 222 12 920 000

2023-yil bo'yicha jami: 124 083 23 760 000

Yuqoridagi jadvalda loyihalar uchun eng ko'p ovoz 6 815 tasi Jizzax viloyati G'allaorol tumani Ko'kgumbaz QFY Qorong'ul qishlog'ining ichki yo'llari qishloqqa kirish qismidan maktab muassasasi oldigacha (temiryo'l o'ng yon bag'ridan o'tgan) ichki yo'lni asfaltlash uchun yig'ilgan bo'lsa, eng kami esa 1 444 ta G'allaorol tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga yumshoq va qattiq jihozlar va oshxona uchun idish-tovoq va oshxona jixozlari bilan ta'minlash uchun yig'ilgan ovozlar tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Jizzax viloyati G'allaorol tumanida 2023-yil tashabbusli byutjetda g'olib deb topilgan loyihalarga jami hisobda 124 083 ta ovoz berilgan va bu ovozlarning 100% sms orqali berilgan ovozlar. G'olib bo'lgan jami loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 23,760 mlrd so'm ajratib berilgan. 2023-yilda o'tgan ya'ni 2022-yilga nisbatan ovoz berishlar soni 1 barobardan ko'proq yani 66 414 ta oshgani ko'rishimiz mumkin. Ovozlar sonidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki xalqimizning kundan-kunga tashabbusli byutjetga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. 2023-yil Jizzax viloyati G'allaorol tumanida eng ko'p ovoz yiqqan loyiha bu G'allaorol tuman G'o'bdin QFY Xo'jakabud qishlog'ida 3000 metr ichki yo'llarga asfalt qoplamasini yotqizish loyihasi bo'lgan. Maktab o'quvchilari va aholi uchun qulaylik yaratish uchun berilgan ovozlar soni 12 050 tani tashkil qilgan va bu loyiha uchun 1,3mlrd mablag' ajratilgan.

Xulosa qilib aytganda, tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022

14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиклигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Хайдаров Н. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.

27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Ikramjon Masharipov. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации.2024